



TO'G'AY MUROD ASARLARIDAGI SHEVAGA OID SO'ZLARNING FONETIKASI

ESHBOYEV ABROR RAXMATULLA O'G'LI

Termiz davlat universiteti talabasi

abroreshboyev04@gmail.com

Ilmiy rahbar: **D.A.Ergasheva**

Annotatsiya: Ushbu maqolada Tog'ay Murod qissalarida qo'llanilgan shevaga xos so'zlarning fonetik, leksik hamda morfologik xususiyatlari yoritilgan. Yozuvchi asarlarida qatnashgan dialektizmlar qatnashgan ma'no ko'chish usullaridan ham namunalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: dialektizm, frazeologizmlar, leksema, so'z shakli, barqaror birikmalar, lingvistik tahlil.

Abstract: The article is typical of the dialect used in Togay Murad's stories phonetic, lexical and morphological characteristics of words are explained. Writer from the methods of transfer of meaning used by the dialectics involved in his works examples are given.

Key words: dialectism, phraseology, lexeme, word form, stable combinations, linguistic analysis.



Ma'lumki dialektizmlar bu— adabiy tildagi dialektlarning o'ziga xos hududiy unsurlaridir. Dialektizmlar tilshunoslikning barcha sohalari (fonetika, leksika, morfologiya, sintaksis va boshqalar)ga taalluqli. Badiiy ijodda dialektizmlar narsa, voqea va hodisaga mahalliy urg'u berish maqsadida qo'llaniladi, bundan tashqari, personaj nutqini individuallashtirish uchun foydalaniladi. Biroq, bunday qo'llash tufayli dialektizmlarlar adabiy tilga oid bo'lib qolmaydi. Dialektizmlarni qo'llash uslublararo ham cheklangan. Badiiy uslubda ancha keng, publitsis-tik uslubda qisman qo'llangani holda ilmiy, rasmiy uslublarda deyarli uchramaydi. Ba'zi so'zlar adabiy til va dialektda qo'llangani holda boshqa dialektda boshqa ma'noni ifodalaydi. Bunday xususiyatlarni Tog'ay Murod ijodida ham kuzatishimiz mumkin. Masalan “birga” so'zini “billa” tarzida, “tovlanib” so'zini esa “toblanib” ko'rinishida qo'llaganligini kuzatishimiz mumkin. Zero, yozuvchi asarlarining eng birinchi ko'zga tashlanadigan xususiyati ham sheva elementlari orqali badiiy jozibadorlikka erishilganligidir. Odatda, shevadagi fonetik o'zgachalikdan badiiy matnda estetik maqsadda foydalaniladi, chunki bunday o'zgachalik, avvalo, nutqqa jonlilik baxsh etadi. Qolaversa, hududiy mansublikni ta'kidlaydi, qahramon nutqining individualligini ta'minlaydi.

Shevaga oid so'zlarning fonetik hodisalarga uchrashi – tovushlarning o'zgarishi, orttirilishi, tushishi, ikkilanishi kabi hodisalar bilan yuzaga chiqadi. Quyida fonetik dialektizmlarni misollar bilan izohlaymiz.

1. So'z oxirida y tovushi orttiriladi: obro'-obro'y. “Obro'y bor-da, misol uchun obro'y bor, ha!” (“Ot kishnagan oqshom”, 92). Ushbu pragmatik nutqda shu so'z orqali personajning ruhiy holati va uning biroz maqtanchoqlikka moyil ekanligi aniq namoyon bo'ladi.
2. So'z o'rtasida v tovushi orttiriladi: surat-suvrat. “Doira suvratida aylantiraman” (“Oydinda yurgan odamlar”, 65).
3. So'z oxiridagi r tovushi l tovushiga almashadi: zarur-zaril. Bunda dissimilatsiya hodisasi kuzatiladi, ya'ni ikki o'xshash tovushdan biri noo'xshash bo'lgan tovushga aylanadi. Birga-billa. “Avtobusda bolalikdan billa o'smish Sadir bo'yinsasi bo'ldi” (“Bu dunyoda o'lib bo'lmaydi”, 73).



4. Juft soʻzlarda s undoshining ch undoshiga almashishi: yogʻin-sochin. “Yogʻin-chochindan ayting. – Yogʻin-chochin...qor kam yogʻadi, aqllar. Yil oxirida sel koʻp keladi” (“Oydinda yurgan odamlar”, 68).
5. Soʻz oʻrtasida v undoshi b ga almashadi: qovoq-qoboq. “Otamiz qoboq uyub ichkarilaydi” (“Oydinda yurgan odamlar”, 27).
6. Soʻz oʻrtasida j tovushi y ga almashadi: majlis-maylis. “Maylis boʻldi!- deydi” (“Oydinda yurgan odamlar”, 46).
7. Undosh tovushlarning choʻzilishi ularning qoʻsh undosh holiga kelishi shaklida boʻladi: maza-mazza. “Ana endi, quyoshda mazza qilib toblanib yotamiz” (“Momo yer qoʻshigʻi”, 9). Ushbu gapdagi soʻzning takror shaklda qoʻllanishi maʼnoni kuchaytirib, ekspressiv boʻyoqdorlikni yuzaga chiqargan.
8. Soʻz oʻrtasidagi n undoshi m ga almashadi: sunbula-sumbula. “Avji saratondan boshlab, sumbula tuqqanida qazib boʻlib edik” (“Momo yer qoʻshigʻi”, 69).
9. Soʻz boshidagi y undoshi j ga almashadi: yigit-jigit. “Tevarak qishloqlardan jigitlar kelib qoʻshilyapti” (“Bu dunyoda oʻlib boʻlmaydi”, 30).

Adib oʻz asarlarida fonetik hodisaga uchragan dialektizmlar, soʻzlashuv uslubiga xos boʻlgan fonetik hodisalardan keng va oʻrinli foydalanganki, bularsiz yozuvchi asarlarining jozibasini va xalqchilligini tasavvur qilish mumkin emas. Dialektizmlardan unumli foydalanish badiiy ijodning, xususan asar saviyasini, umumiy nutqning badiiyligini, ijodkor uslubining fazilati va taʼsirchanligini oshiradi. Bu xususiyatlarning barchasini adib “Togʻay Murod” asarlarida kuzatishimiz mumkin.

Leksik dialektizmlar, koʻpincha, ogʻzaki soʻzlashuv nutqiga hamda badiiy asar personajlari nutqiga xos boʻlib, qalam ahli asarning yanada qiziqarli boʻlishini taʼminlashda ulardan unumli foydalanadi. Togʻay Murod qissalarida ham shevaga xos soʻzlarni oʻz qahramonlari nutqiga mohirlik bilan singdirishga harakat qilingan. Odatda, adabiy tilda maʼnodoshi mavjud boʻlganlari sof dialektizmlar hisoblanadi. Begʻubor bolalik, bebosh yoshlik, yaqin olislarda – sochlarning oqi, yuzlarning **bujuri**, koʻzlarning nuri, koʻngilning tub-tubida qoldi... (“Yulduzlar mangu yonadi”, 12). Kuyganimdan



gapiraman-da, Sora momo, kuyganimdan! – dedi Qimmat momo. – **Bo'lam-da**, ming qilsayam, bo'luginam-da! (“Oydinda yurgan odamlar”, 176). Serjant Orziqulov xayol qildi... Quroldoshlar bo'ysira bo'ldi. Qurol-yaroqlar jangir-jungur bo'ldi. (“Momo yer qo'shig'i”, 269). Ushbu matnlardagi shevaga xos so'zlar (bujur-burishiq, bo'la-opa-singil bolasi, xolabachcha, bo'ysira-atrofini o'rab olmoq) ma'lum hududga xos milliylikni bo'rttirib ko'rsatish hamda ma'noni kuchaytirish maqsadida qo'llanilgan.

Yozuvchi qissalarida shevaga xos so'zlarning morfologik xususiyatlari ham to'laligicha namoyon bo'lganligini ko'rish mumkin. Xususan, adib hududga xos shevalarda otga xos kategoriyalarning o'ziga xos tarzda qo'llanishini asardan olingan materiallar bilan chiroyli dalillab bergan. Bu holatni quyidagi o'rinlarda kuzatish mumkin:

1. Egalik qo'shimchasini tushirib yoki almashtirib qo'llash holati: “Momomiz gap bilan andormon bo'lib bilmaydi” (“Oydinda yurgan odamlar”, 57). “Kel-kel, aynam, manavi yerga o'tir, - dedi Hojar ko'r” (“Oydinda yurgan odamlar”, 89).
2. Kelishik qo'shimchalarini tushirib qoldirish yoki o'zgartirib qo'llash holatida: “Ertasi kuni Dushanbe(ga) uchdim. O'tirganlar shahodat barmog'ini likkillatib, o'rtada laylak qushday lo'killab yurgan qizni imladi” (“Otkishnagan oqshom”, 96). Bolish(ni) quchoqlaydi (“Oydinda yurgan odamlar”, 67).

Tog'ay Murod asarlarida shevaga xos sifat so'z turkumiga doir so'zlar ham qo'llangan. “Serjant Orziqulov chiyduxoba kamzulini kiyib oldi” (“Ot kishnagan oqshom”, 46). “Uloq bu gal maydagina bir to'riqda ketdi” (“Ot kishnagan oqshom”. 119) gaplaridagi chiyduxoba ohori to'kilmagan vilvitga o'xshash material, mayda so'zi kichkina ma'nosida qo'llangan.

Tog'ay Murod asarlarida qo'llangan dialektizmga xos olmoshlar, asosan, adabiy tildagi variantidan fonetik jihatdan farqli ravishda qo'llangan: “Polvon bova, manov Ermat polvonni bir sinab ko'ring” (“Yulduzlar mangu yonadi”. 58). “Bari ayol shunday deydi” (“Momo yer qo'shig'i”, 45). Ravish so'z turkumiga oid so'zlar ham asar syujetining qiziqarli bo'lishini ta'minlashga xizmat qilganligini ko'rish mumkin. “Shu bois Tarlonni oshiqcha zarblamadim” (“Ot kishnagan oqshom”, 130). “Bovasi ilkisdan turib ketdi” (“Oydinda yurgan odamlar”, 87). Zarblamadim so'zi urmadim, majburlamadim, ilkisdan so'zi esa to'satdan ma'nosini ifodalagan.



Tog'ay Murod asarlarida dialektizmlarning fonetik, morfologik, leksik hamda ma'no ko'chish bilan bog'liq ko'rinishlaridan unumli foydalangan. Shu bilan birgalikda Surxon shevasi, uning nutqini yetarlicha yoritib bera olgan. Tog'ay Murod asarlarida dialektizmlarning fonetik, morfologik, leksik hamda ma'no ko'chish bilan bog'liq ko'rinishlaridan unumli foydalangan. Bu esa muallifning asar qahramonlari tabiati hamda hudud so'zlashuv nutqiga xos o'ziga xosliklarni ko'rsatib beruvchi milliy koloritni ochib berishga alohida e'tibor bergan o'ziga xos uslubga ega ijodkor ekanligidan dalolat beradi. Bu esa muallifning asar qahramonlari tabiati hamda hudud so'zlashuv nutqiga xos o'ziga xosliklarni ko'rsatib beruvchi milliy koloritni ochib berishga alohida e'tibor bergan o'ziga xos uslubga ega ijodkor ekanligidan dalolat beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Sayfullayeva R.R., Mengliyev B.R., Boqiyeva G.H., Qurbonova M.M., Yunusova Z.Q., Abuzalova M.Q. Hozirgi o'zbek adabiy tili. O'quv qo'llanma. -T.: "Fan va texnologiya", 2009. – B. 416.
2. Shoabdurahmonov Sh. Sh. O'zbek adabiy tili va o'zbek xalq shevalari. -T.: Fan, 1962.
3. Shoimova N. O'zbek tilining qipchoq lahjasi leksikasidan ayrim qaydlar. O'TA.T., Fan, 2008.
4. Murodova N. O'zbek adabiy tili va shevalar leksikasining qiyosiy tadqiqi. -T.: Fan, 2005
5. Tog'ay Murod. Oydinda yurgan odamlar. – Toshkent: Ziyo nashr. 2020.
6. Tog'ay Murod. Ot kishnagan oqshom. – Toshkent: Ziyo nashr. 2020.
7. Tog'ay Murod. Bu dunyoda o'lib bo'lmaydi. – Toshkent: Ziyo nashr. 2020.
8. Tog'ay Murod. Momo yer qo'shig'i. – Toshkent: Ziyo nashr. 2020.
9. Shoimova N. O'zbek tilining qipchoq lahjasi leksikasidan ayrim qaydlar // O'TA.T., Fan, 2008.